

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAXMURODOVA DILJAHON ALMARDONOVNA**

**ONA TILIDAN O‘QUV MATERIALLARNI ANGLAB TUSHUNISH**  
**DARAJALARINI BAHOLASH METODIKASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) (pedagogika fanlari).

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Shaxmurodova Diljahon Almardonovna**

Ona tilidan o'quv materiallarni anglab tushunish darajalarini baholash  
metodikasini takomillashtirish..... 3

**Шахмуродова Дилжахон Алмардоновна**

Совершенствование методики оценивания уровня понимания учебного  
материала по родному языку .....

**Shakhmurodova Diljakhon Almardonovna**

Improving the methodology for assessing the level of understanding of educational  
material from the native language .....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAXMURODOVA DILJAHON ALMARDONOVNA**

**ONA TILIDAN O‘QUV MATERIALLARNI ANGLAB TUSHUNISH  
DARAJALARINI BAHOLASH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) (pedagogika fanlari).

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Qarshi– 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Ped2759 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Nurullayeva Shaxlo Uktamovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

**Rasmiy opponentlar:** **Tojiyeva Gulbahor Namozovna**  
filologiya fanlari doktori, professor.  
**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:** **Termiz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi Davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: [kardu@mail.ru](mailto:kardu@mail.ru)) Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 301-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: [kardu@mail.ru](mailto:kardu@mail.ru)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi  
(2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**R. D. Shodiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p. f. d., professor.

**I.B. Kamolov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
p. f. d. (DSc), professor.

**N. X. Oripova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi. p. f. d. (DSc), professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim yutuqlarini baholash muammolari ustida ish olib boruvchi IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning o'qish savodxonligi asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

Dunyo mamlakatlarida kechayotgan globallashuv sharoitida ilm-fan taraqqiyoti davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi hamda qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'limi tajribasida anglab tushunish muammosini hal etishga doir bir qator zamonaviy yondashuvlar mavjud. Ayniqsa, fan va texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida ilmiy bilimlarni anglash va tushunishdagi qiyinchiliklar sinchkovlik ila tahlil qilishni talab qiladi. Zero, anglash ham borliqqa chuqur kirib borish bilan bog'liq bo'lgan bilishning alohida jihati hisoblanadi. Ayni paytda, zamonaviy dunyo amaliyoti matnini tushunish mezoniga qaratilgan. Rivojlangan mamlakatlarda muntazam ravishda o'quvchilar o'qish ko'nikmalarini baholashga doir PISA, PIRLS va EGRA dasturi, matematika va tabiiy fanlarga doir bilimlarni baholashga doir TIMSS dasturlari keng qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning fikr yuritish, ta'limiy maqsadlarga erishish, o'quv imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning yangi bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratgan holda Prezidentimiz tomonidan "Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o'z o'rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo'lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo'lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo'shliq mavjudligini yana bir marotaba isbotlamoqda"<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.294-295.

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli, 2022-yil 11-maydagi "2022-2016-yillarda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmonlari, 2020- yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli, 2022 -yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-241-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-187-sonli, 2018 yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-997-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faolligini oshirish (R.Ibragimov, G.Najimova, B.Adizov, A.Hamroyev), o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni anglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish (R.Shodiyev, K.Bobomurodov), o'quvchi bilimiga baho berish (K.Jalilov, H.Qoraboyev), o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga doir xalqaro tadqiqotlar muammolari (A.A.Ismailov, N.A.Karimova, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov) qator tadqiqot ishlari obyekt sifatida o'rganilgan.

MDH olimlaridan I.G.Petrova inson bilish jarayonini, G.V.Sherbich, G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy o'qish savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish, A.Rojkova kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv faoliyatini baholash muammolarini, O.K.Tixomirov inson fikrlash faoliyatining tuzilishini, Yelena Lenskaya, Galina Golub, Marina Pinskaya, Galina Savinixlar esa o'quvchilar bilimini baholashning shakllantiruvchi turini o'z tadqiqotlarida keng o'rganganlar.

Xorijiy olimlardan S.D.Miller, B.S.Faircloth, A.Taboada, S.M.Tonks, A.Wigfield, J.T.Guthrie kabi olimlar o'quvchilar o'quv faolligini oshirishda motivatsiyaning o'rnini asoslab bergan bo'lsalar, o'qish samaradorligini aniqlashga doir xalqaro baholash dasturlari tahlilini R.Wolf, R.Ruddle, N.J.Unrau, D.Rumelhart, J.Langer, W.Kitnsche kabi pedagog olimlar tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq "Yoshlarni umummilliy

qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv materiallarini anglab tushunish darajalarini baholash metodikasini takomillashtirish asosida bilim o‘zlashtirish darajalarini rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini baholash muammosini pedagogik muammo sifatida o‘rganish va muammoning nazariy asoslarini tahlil qilish;

o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, o‘qib tushunish va anglash darajalarini baholashga doir xalqaro baholash dasturlarini o‘rganib chiqish;

ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilar anglab tushunish jarayonlarini baholash tizimini takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish;

ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilar anglab tushunish darajalarini baholash metodikasini takomillashtirish va samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqot obyektini** ona tili ta’limida o‘quvchilarning anglab tushunish darajalarini baholash jarayoni tashkil qiladi.

**Tadqiqot predmeti** o‘quvchilarning ona tilidan o‘quv materiallarini anglab tushunish darajalarini baholash shakllari, metod va usullaridan iborat.

**Tadqiqot usullari:** kuzatuv, anketa-so‘rovnomalari, test, nazariy tahlil, o‘quvchilar anglab tushunish darajalarini o‘rganishning diagnostik metodikalari, matematik-statistik tahlil.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

o‘quvchilarining o‘quv-biluv faoliyatini baholash metodikasi shaxs aqliy faoliyatining ma’lumot ma’nosini aniqlash, kerakli ma’lumotlarni belgilab borish, matndagi muhim ma’lumotlar ketma-ketligiga e’tibor qaratish, matndagi asosiy dalillarni tizimlashtirish, matn g‘oyasini aniqlash va xulosa chiqarish kabi bosqichlariga mezon hamda me’yorga asoslangan baholash turlarini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning o‘quv materiallarini anglab tushunish darajalarining formativ, summativ, shakllantiruvchi kabi baholash turlari baholashning maqsadi, vazifalari, darajalari, yo‘nalishlarini tanlash jarayoniga matnning baholash mezonlariga muvofiqlik omillari, o‘quvchi shaxsi psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslik omillarining ta’siriga ko‘ra aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarining anglab tushunish darajalarini baholash jarayoni modelining texnologik bloki ona tilidan o‘quv materiallarini anglab tushunish bosqichlarining motivatsion, shakllantiruvchi, baholash komponentlarini PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga ko‘ra o‘quv materiallari topshiriqlarini modifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilar anglab tushunish darajalarini baholash metodikasi badiiy matnlar bilan ishlashga doir ona tilidan o‘quv materiallari muhim belgilarini ajratish, umumlashtirish, aniqlash, anglash, tushunish kabi fikriy operatsiyalardan foydalanishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ona tilidan o‘quv materiallarini anglab tushunish darajalarini baholash orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish tajribalari tizimlashtirilgan va o‘qituvchilar uchun qo‘llanma sifatida “Ta’lim-tarbiya metodikasi” nomli mobil ilova ishlab chiqildi (O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2022- yil 24-iyunda berilgan № DGU 17368 raqamli guvohnoma);

boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilar anglab tushunish darajalarini baholashga doir xalqaro tajribalar tahlili asosida “Metodika” nomli mobil ilova ishlab chiqildi (O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 5-iyulda berilgan № DGU 17359 raqamli guvohnoma);

boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarni anglab tushunish darajalarini aniqlashga doir matnlar hamda topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot muammosi tahliliga yondashuvlarning ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanganligi, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda pedagogik vazifalar mohiyatiga tadqiqot metodlarining muvofiq tanlanganligi, pedagogik eksperiment ishlariga jalb etilgan respondentlar sonining belgilangan talablarga mosligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi va tadqiqot ijobiy natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, tahliliy materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalar orqali ommalashtirilganligi bilan belgilanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, ona tilidan o‘quv materiallarini anglab tushunish jarayonlari mazmuni, o‘quvchilar bilimni baholash tizimi, unga doir xorijiy tajribalar tahlil qilinganligi, tahlillar natijasida to‘plangan ma’lumotlar tizimlashtirilganligi, o‘quvchilarning anglab tushunish darajalari rivojlanganligini baholash mezonlari aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot davomida ona tilidan o‘quv materiallarini anglab tushunishga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda baholash tizimini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan, ushbu modelni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilgan, o‘quv qo‘llanma, maxsus topshiriqlar tizimi taklif etilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlash, o‘qituvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirish tizimi hamda malaka oshirish kurslarida ham foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ona tilidan o‘quv materiallarini anglash va tushunish darajalarini baholash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

o‘quvchilarining o‘quv-biluv faoliyatini baholash metodikasi shaxs aqliy faoliyatining ma’lumot ma’nosini aniqlash, kerakli ma’lumotlarni belgilab borish, matndagi muhim ma’lumotlar ketma-ketligiga e’tibor qaratish, matndagi asosiy dalillarni tizimlashtirish, matn g‘oyasini aniqlash va xulosa chiqarish kabi bosqichlariga mezon hamda me’yorga asoslangan baholash turlarini tatbiq etish asosida takomillashtirilganligiga doir xulosalardan “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta



maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan № 388-137 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, pedagogika ta'lim nazariyasi qismi o'quvchilar bilimni baholashga doir ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

o'quvchilarning o'quv materiallarini anglab tushunish darajalarini formativ, summativ, shakllantiruvchi kabi baholash turlari baholashning maqsadi, vazifalari, darajalari, yo'nalishlarini tanlash jarayoniga matnning baholash mezonlariga muvofiqlik omillari, o'quvchi shaxsi psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslik omillarining ta'siriga ko'ra aniqlashtirilganligiga doir xulosalardan "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini anglash va tushunish darajalarini baholashning metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan № 538-188 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan o'quv materiallarini anglash va tushunish darajalarini baholash jarayonining metodik ta'minoti boyitilishiga erishilgan;

ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar anglab tushunish darajalarini baholash metodikasi badiiy matnlar bilan ishlashga doir ona tilidan o'quv materiallari muhim belgilarini ajratish, umumlashtirish, aniqlash, anglash, tushunish kabi fikriy operatsiyalardan foydalanishga qaratilgan o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirilganligiga doir tajribalardan Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 12-oktabrdagi 01/11-1-842-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayoni o'quvchilar bilimni rivojlantirish va diagnostika qilishga doir metodika asosida takomillashtirilishiga muvaffaq bo'lingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 17 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 35 ta ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy, 7 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Dasturiy mahsulotlar uchun intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 147 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari

bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "O'quv materiallarini anglab tushunish jarayonlarini baholashning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini tashkil etishga doir tadqiqotlar o'rganilgan, ushbu jarayonning psixologik-pedagogik mazmuni ochib berilgan, o'quvchilarning anglab tushunish darajalarini baholashga doir tarixiy va xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

O'quv faoliyati o'quvchilarning atrof olamni bilish, atrof olam haqidagi bilim va tushunchalarni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv-biluv harakatidir.

O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatleri va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir.

Pedagogik atamalar lug'atida bilimga quyidagicha ta'rif beriladi:

Bilim - bu ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi sanalib, atrof-olam, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash jarayonida shakllanadi.

Demak, bilish faoliyati jarayonida o'quvchi taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtiradi va tevarak-atrofdagi voqelikni anglab yetadi.

O'qish va tushunish — bu matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab anglay olish qobiliyatidir.

Anglash - zamonaviy psixologiyadagi tushunchadir; joriy tajribalarning uzluksiz monitoringi, ya'ni subyektning o'tmishdagi yoki kelajakdagi voqealar haqidagi fikrlariga aralashmasdan hozirgi lahzani boshdan kechirishga qaratilgan holat sifatida belgilanadi. Bu ongning o'z faoliyatini introspeksiya qilish qobiliyatidir.

Tushunish - ongda obyektlar o'rtasida o'rnatilgan aloqalar asosida mazkur aloqalar foydalanilishi mumkin va lozim bo'lgan masalalarni yechishni bilish degani. Shu bilan birga tushuntirish va tushunish kategoriyalarini taqqoslashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tushunish - g'oya, hodisa, dalillarning mohiyatini ochish, anglash, o'zlashtirish, mavjud bilimlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish, shaxs ma'naviy sohasiga yangi mazmuni kiritish jarayoni va natijasidir.

Anglab tushunish – har doim inson faoliyati asl mazmunini anglash va unga kirish bo'lib, u o'zlashtirilishi lozim bo'lgan va talqin etilayotgan xususan, o'quv matni o'rtasida o'zaro ta'sir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Anglab tushunish jarayonida mazmun nafaqat uning tub mohiyatini ochish natijasi, balki vositasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Baholash - bu biron bir mezon yoki me'yorlar to'plamini, qiymatini, ahamiyatini yoki ma'nosini hisobga olgan holda belgilashdan iborat bo'lgan hukmdir.

Baho inson faoliyatining turli sohalarida, masalan, ta'lim, sanoat, sog'liqni saqlash, psixologiya, biznesni boshqarish, iqtisodiyot, moliya, texnologiya va boshqalarda qo'llaniladi.

Ta'limda baholash – bu bilim berish va o'zlashtirishda turli darajadagi yutuqlar uchun standartlashtirilgan o'lchovlarni qo'llash jarayoni. Baholar harflar sifatida (odatda A dan F gacha), diapazon sifatida (masalan, 1 dan 6 gacha), foiz sifatida yoki umumiy son shaklida (ko'pincha 100 dan) berilishi mumkin.

O'quvchining fanga doir egallagan bilimlarini baholashning odatda turli xil shakl usullari qo'llaniladi: og'zaki baholash, yozma baholash, test usulida va reyting tizimi orqali baholash shular jumlasiga kiradi.

Xorijiy mamlakatlarda, jumladan Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi. Fin maktablarida o'quvchilar bilimi uchun 1–3-sinflarda baho qo'yilmaydi, 4–6-sinflarda og'zaki motivatsion so'zlar orqali baholash amalga oshirilsa, 7–9-sinflarda va 2-3 yillik kollej, litseylarda 4–10 ball bilan baholanadi, 4 ball qoniqarsiz, 10 ball esa eng yuqori baho hisoblanadi.

Buyuk Britaniya Ingliz maktablarida uzoq vaqt davomida o'quvchilar bilimini baholash uchun harflardan foydalanilgan. Baholash juda sodda — G dan A gacha, bu yerda G — eng past baho bo'lsa, A — eng yaxshi baho. O'rta maktabning birinchi sinfida (11-12 yoshlarda) o'quvchi matematikani yoki ingliz tilini F darajada, keyingi sinfda E darajada, undan keyingi sinfda D darajada bilishi, shunday qilib 9 yildan keyin maktabni bitirguncha A darajaga yetib borish kerak bo'lgan.

Germaniyada 6 ballik baholash tizimi mavjud bo'lib, 1 ball eng yaxshi, 6 ball esa eng past. Germaniyada olti yoshdan oshgan barcha bolalar boshlang'ich maktabga borishadi va u yerda to'rt yil tahsil olib, mashg'ulotlar haftasiga 20 soatdan 30 soatgacha davom etadi. 1–2-sinflarda o'quvchilar baholanmaydi, baholar faqat uchinchi sinfdan (agar ota-onalar rozi bo'lsa) boshlab qo'yiladi. To'rtinchi sinfdan majburiy hammaga baho qo'yiladi. Joriy nazorat baholari kamroq. Ota-onalarga bir o'quv yilida 2 marta baholar hisoboti taqdim etiladi.

O'zbekistonda esa bir necha yil davomida turli ko'rinishdagi baholashlardan foydalanilib, hozirgi kunda 5 ballik tizimga baholanmoqda. Joriy nazorat — so'rovlar, yozma ish yoki testlar tarzida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari muntazam nazorat qilinadi. Oraliq nazorat — chorak tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini baholash uchun amalga oshiriladi.

2023-yil 16-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 248-sonli buyrug'iga ko'ra tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etish to'g'risidagi 248-sonli buyruqqa ko'ra o'quvchining choraklik bahosi (maksimal 100 ball): 50 foizi chorak davomidagi summativ baholash nazoratlari uchun, 40 foizi chorak oxirida summativ baholash nazorati uchun, 10 foizi chorak davomida formativ baholash uchun taqsimlanadi. Umumlashtirilgandan so'ng ball bahoga almashtriladi: 86-100 ball – 5 a'lo, 66-85 ball – 4 yaxshi, 30-65 ball – 3 qoniqarli, 0-29 ball – 2 qoniqarsiz. Respublikamizdagi 500 ta tajriba-sinov maktablarida o'quvchilar bilimi yuqoridagi buyruq asosida baholanmoqda.

Ta'lim jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri;

Bilishning falsafiy nazariyasiga ko'ra, bilish moddiy va ma'naviy borliqning inson miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol aks etishidir.

Bilish – ta'lim oluvchi ongida tashqi dunyo aks etishining ma'lum shakliga tegishli ta'lim-tarbiya oluvchining xotirasida saqlanib qoladigan va uning amaliy faoliyatini tartibga solish va tashkil etishga yo'naltirilgan tasavvur va tushunchalar ko'rinishidagi ifodasidir.

Bilishning nazariy darajasi bir qator xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat; nazariy bilimlar o'zining umumiyligi va mavhumligi bilan ajralib turadi; nazariy bilimlar yaxlit va tizimli bilimlar hisoblanadi; u falsafiy bilimlar bilan yaqinligi bilan tavsiflanadi; empirik bilimlarga nisbatan mukammal bilimlar hisoblanib, hodisalarning mazmun-mohiyatini atroflicha va chuqur aks ettiradi.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari bir-biridan olamdagi narsa va hodisalarni o'rganish jarayonida foydalanadigan ilmiy usullari bilan ham farqlanadi. Ilmiy bilishning empirik darajasida quyidagi usullarda keng qo'llaniladi: Kuzatish, o'lchash, taqqoslash, ilmiy tajriba (eksperiment).

Har qanday ma'lumotni bilish uchun ko'proq vaqt ajratish talab etiladi. Tushunish esa uzoq jarayon bo'lib, bilish uning bir qismi bo'lishi mumkin. Bizningcha, o'quv materiallarini anglab tushunish, uni idrok qilish, o'zlashtirish quyidagi bosqichlardan iborat.

1-bosqich: matnni o'qish;

2-bosqich: so'zning matndagi ma'nolarini anglash;

3-bosqich: rasmlarda, chizmalarda ifodalangan ma'lumotni tushunish va so'zlarning o'zaro mazmuniy bog'lanishini, birliklarning matndagi vazifasini idrok etish;

4-bosqich: matndagi umumiy va yashirin ma'nolarni tushunish, matn maqsadini anglash, matndagi ma'lumotdan real hayotiy vaziyatda foydalana olish;

5-bosqich: matnga aynan shu mavzuda yozilgan boshqa matnlar bilan qiyoslab baho bera olish.

6-bosqich: matn g'oyasini anglash va matndan xulosa chiqarish.

O'quv materiallari bilan ishlashda anglab tushunish darajasini oshirishda quyidagi aqliy bosqichlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

ma'lumot ma'nosini aniqlash;

kerakli ma'lumotlarni belgilab borish;

matndagi muhim ma'lumotlarning ketma-ketligiga e'tibor qaratish;

matndagi asosiy dalillarni tizimlashtirish

matn g'oyasini aniqlash va xulosa chiqarish.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va

malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa effektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Biz uchun hamma o'quvchilar imkon qadar teng darajada "yurish"lari lozim. Lekin biz bularning barchasidan avval matn orqali sujet ketma-ketligi, asar qahramonlarining ismi va qanday harakatlar qilganini bilib olishdan tashqari yana qanday ko'nikmalarni rivojlantirishimiz mumkinligini aniqlab olishimiz zarur.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin. Ya'ni, mezonga asoslangan baholash va me'yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash – bu baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, ko'nikma va malakalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'rganish maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

Mezonga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

o'quv maqsadiga muvofiq baholanadi;

ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi;

baholash o'zining aniq ko'rsatkichlariga ega bo'ladi;

ta'lim oluvchi olgan bahosidan yo'l qo'ygan xatolarini yaqqol ko'rib turadi;

baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi;

baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ulaning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishonchini oshiradi;

hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o'rnatadi;

ta'lim mazmunini aniqlab beradi;

baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

Mezonga asoslangan baholashning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi;

mezonlarning obyektivligi, haqqoniyligi va aniqligini aniqlashga nisbatan o'quvchilarning ko'pligi;

ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Me'yorga asoslangan (normativ) baholash nisbiy baholash shakli bo'lib, baholashdan so'ng baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat. Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi. Me'yoriy baholashda baho bir necha ko'rsatkichlarga va ta'lim olish shart-sharoitlariga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'ladi.

Me'yorga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

ta'lim beruvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;  
turli shart-sharoitlarga oson moslashtirish mumkin;  
baho bo'yicha ko'rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;  
muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi;

baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarni ajratib olish imkonini beradi;

Me'yorga asoslangan baholashning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:  
bilimlarni obyektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi;

baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirilib yuboriladi;

ba'zan xulqni baholash bilimni baholashni belgilab beradi;

baholar ta'lim beruvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkin;

ta'lim oluvchilar nisbatan simpatik ham bahoni yuqori qo'yib yuborishga olib keladi.

Milliy o'quv dasturining baholash komponentida baholashning davriyligi, turlari va baholash instrumentlaridan samarali foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Yangi qo'llanilishi kutilayotgan baholash tizimida o'qituvchilarimiz ko'nikmasi shakllanib bo'lgan 5 balli shkaladan foydalanish ko'zda tutilgan. Biroq, biz qaysi shartli belgidan foydalanishimizdan qat'iy nazar asosiy e'tibor baholash mezonlariga qaratiladi.

Taklif etilayotgan yangi baholash tizimida o'quvchilarning sinfxonadagi bilimni baholash tizimini tubdan isloh qilish nazarda tutilgan. Bunda asosiy e'tibor o'quvchining faoliyatiga emas, ko'proq ko'nikmasini baholashga qaratilishi, natijani baholashga yo'naltirilgan bo'lishi hamda o'qituvchini kelgusi baholash jarayonidagi vazifalarni belgilab olishi uchun samarali bo'lishi kerakligi ta'kidlanmoqda. Uzluksiz ta'lim milliy o'quv dastur talablariga ko'ra baholashning ikkita turidan foydalanish nazarda tutilgan: formativ baholash va summativ baholash.

Formativ baholash – bu ta'lim maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning keyingi harakatlarini tartibga solishda ularning yutuqlari to'g'risida ma'lumot olishning kundalik jarayoni sanaladi.

Summativ baholash – muayyan o'quv davri (chorak, o'quv yili) oxirida, shuningdek, o'quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladigan baholash turi. Oraliq nazorat, yakuniy nazorat, bosqichli imtihon va yakuniy davlat attestatsiyalari misol bo'la oladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarimiz bilimi xalqaro darajada ham baholanib kelmoqda. Xalqaro dasturlardan biri bo'lgan PISA dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega: – u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur; – ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamlı xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri; – tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2

oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadi; o'quvchilarning "mustaqil hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi; – o'quvchilarning funksional savodxonligi (insonlarning tashqi muhit va jamiyat bilan munosabatga kirishishi va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati), jumladan, o'qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi; – tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading and Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.


PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir. Ilmiy manbalarda "O'qish savodxonligi" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: O'qish savodxonligi – insonning yozma matnlarni tushunishi va undan foydalanishi, ular haqida fikr yuritish va maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun o'qish bilan shug'ullanish qobiliyati.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar anglab tushunish darajalarini baholash mazmuni" deb nomlangan. Ushbu bobda o'quvchilarning ona tilidan o'quv materiallarini anglab tushunish darajalarini oshirish va obyektiv baholash modeli ishlab chiqilgan, PIRLS xalqaro tadqiqotlari asosida anglash va tushunish darajalarini oshirish yo'llari takomillashtirilgan hamda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar anglash va tushunish darajalarini baholashga doir topshiriqlar tizimlashtirilgan.

Tadqiqot muammosi tahliliga asosan o'quvchilarning ona tilidan o'quv materiallarini anglab tushunish darajalarini oshirish va baholash modeli takomillashtirildi (1-rasm).



1-rasm. O'quvchilarning ona tilidan o'quv materiallarini anglab tushunish darajalarini oshirish va obyektiv baholash modeli



O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarni anglab tushunish darajasini oshirish va obyektiv baholashga yo'naltirilgan metodikani tuzish jarayonida anglab tushunish darajalarini oshirishga yo'naltirilgan yondashuv mohiyatini hisobga olgan holda anglab tushunish darajalarini oshirish va baholashda har bir blokning mazmuni aniqlab olindi.

Mazkur model o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta blokdan iborat tarzda tuzildi:

1. Maqsad bloki.
2. Mazmun bloki.
3. Texnologik blok.
4. Diagnostik natija bloki.

Modelning asosiy maqsadini belgilashda Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standarti hamda malaka talablarida o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, jamiyatning o'qish savodxonligi shakllangan shaxsga bo'lgan ehtiyoji va xalqaro tajribalardan kelib chiqildi. Modelning asosiy maqsadi – ona tilidan o'quv materiallarini anglab tushunish darajalarini baholash metodikasini takomillashtirish asosida o'quvchilar bilim o'zlashtirish darajalarini rivojlantirish.

Model maqsadidan kelib chiqib boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar anglab tushunish darajalarini baholash metodikasini takomillashtirish va samaradorligini aniqlash vazifasi belgilab olindi.

Modelning navbatdagi moduli o'z ichiga uchta komponentni qamrab olgan. Bular:

- baholashga yondashuv;
- baholash tamoyillari;
- baholashga doir xalqaro dasturlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholashda individual, xolislik, ilmiy-professional, ijodiy, shaxsga yo'naltirilgan, variativ, tizimli yondashuvlardan o'rinli foydalanildi.

O'quvchilar bilimini baholash uchun tanlanadigan usul, vositalarni tanlash va o'quvchi bilimini baholashda o'quv maqsadlariga asoslanganlik, haqiqiylik, haqqoniylik, ishonchlilik, qulaylik va rivojlantiruvchi tamoyillariga asoslanildi.

Baholashga doir xalqaro dasturlar sirasiga PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGRA, EGMA dasturlarini kiritish mumkin. Bu dasturlar o'quvchilar bilimini, bilimidagi bo'shliqni, ularni o'qitish jarayoni va o'qitish tizimini baholash uchun xizmat qiladi. Tadqiqot ishi davomida o'quvchilarni anglash va tushunish darajalarini aniqlash, rivojlantirish va baholashda PIRLS dasturi talablari va mezonlariga asoslanildi.

PIRLSga tizimli tayyorlashda sinfdan tashqari o'qish, mustahkamlash, takrorlash darslari hamda to'garaklarning o'rni juda muhim. Bunda o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashi, obrazli tafakkurini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotimizdagi anglash va tushunish darajalarini oshirish bosqichlari bevosita o'quv jarayoni, ya'ni faollashtirish, motivatsiya, yangi materialni taqdim etish, uni o'zlashtirishni tashkil etish, mustahkamlash, nazorat va yakunlash bilan

muvofiglashtirilgan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish jarayonida uzluksizlikni taminlashning quyidagi tamoyillari katta ahamiyatga ega: Yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili, amaliy-faoliyatli yondashuv tamoyili, hissiy-estetik yondashuv tamoyili, tizimlilik va davomiylik tamoyili, badiiylik va ifodaviylik tamoyili, interfaollik va onglilik tamoyili, ko'rsatmalilik tamoyili.

Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi: o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash; fanning hajmi va mazmunini aniqlash; zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish; fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish; ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish; o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalash.

